
Fuqarolar qabuli – xalq bilan ochiq muloqot

Sektor rahbarlarining qabulida 50 nafardan ziyod fuqarolarning murojaatlari o'rzanildi

Qo'shtepa tumani sektor rahbarlari aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, ularni qiy nab kelayotgan muammolarni aniqlash va hal etish maqsadida O'zbekiston Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasida fuqarolar qabulini o'tkazmoqda.

Navbatdagi fuqarolar qabulida Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari, hokim o'rnbosarlari, mas'ul tashkilot hamda muassasalar rahbarlari ishti rok etdi.

Qabul davomida fuqarolar tomonidan turli masalalarga oid taklif va murojaatlar bildirildi. Shu kuni qabul davomida 50 nafardan ziyod fuqarolar tomonidan bildirilgan turli yo'nalishdagi masalalar har tomonlama ko'rib chiqildi.

Muammolarning aksariyatiga qabul chog'ida ijobiy yechim topildi. Ijrosi ma'lum muddat va qo'shimcha o'r ganishni talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mutasaddi rahbarlarga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Qabul yakunida har bir murojaat tahlil qilinib, amaliy yordam ko'rsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

2025-01-14 15:34:55